

## BO‘STONLIQ TUMANIDA O‘RMON XO‘JALIKLARI VA QO‘RIQLANADIGAN YERLARIDA EKOTURIZIMNI RIVOJLANTIRISH VA IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISH

*Qudratov Erali Sherali o‘g‘li*  
*, ToshDAU, magistranti*  
[qudiratoverali@gmail.com](mailto:qudiratoverali@gmail.com)

*Saidov Muxammad-Ali Xakimovich,*  
*ToshDAU, professori, i.f.d.*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada Bo‘stonliq tumanida o‘rmon xo‘jaliklari va qo‘riqlanadigan yerlarida ekoturizimni rivojlantirish va iqtisodiy samaradorligini oshirishga doir tavsiyalar berilgan.

**Kalit so‘zlari:** Ekoturizm, o‘rmon xo‘jaligi, ekoturizmini rivojlantirish, ekoturistik resurslar, ekoturizm salohiyati, ekoturistik hududlar.

**Abstract.** This article provides recommendations on the development and economic efficiency of ecotourism in forest farms and protected areas in Bostanlyk district.

**Key words:** ecotourism, forestry, ecotourism development, ecotourism resources, ecotourism potential, ecotourism areas

**Аннотация.** В данной статье даны рекомендации по развитию и экономической эффективности экотуризма в лесных хозяйствах и особо охраняемых природных территориях Бостанлыкского района.

**Ключевые слова:** экотуризм, лесное хозяйство, развитие экотуризма, ресурсы экотуризма, потенциал экотуризма, районы экотуризма.

Ekspertlarning ta’kidlashlariga binoan, ekoturistlar ko‘pincha o‘rta yoki o‘rtadan yuqori sarmoyaga ega bo‘lgan, har tomonlama ta’minlangan sayohatchilardan iborat. Sayyoramizda inson oyog‘i yetmagan yovvoyi tabiat juda kam qolganligi sababli, odatda bunday hududlarga sayohat qilish cheklangan, hamda ularga sayyohat qilish ham sezilarli darajada qimmat. Shu sababli, ekoturizmdan tushgan daromad turizmdan tushgan daromadlardan bir necha marotaba ko‘pdir. Hozirgi kunda ekoturizm turizm va ekskursiya qilish jahon kengashining (WTTC) va jahon turistik tashkiloti (WTO) ma’lumotlariga ko‘ra, jadal sur’atlar bilan rivojlanib borayotgan turistik industriyalardan biri hisoblanadi.

Mamlakatimizning o‘zining turistik resurslari bo‘yicha Markaziy Osiyoda oldingi, dunyoda noyob turistik potensialga ega bo‘lgan 10-15 ta davlat orasida joy egallaydi. Uning hududida har xil tarixiy davrlarga mansub 4000 dan ortiq noyob arxitektura, tarixiy va tabiat yodgorliklari mavjud.

Toshkent viloyatining Bo‘stonliq tumani “Chorvoq” erkin turistik zonasi, Ugam — Chotqol milliy bog‘i, “Chorvoq” suv omboriga ega, hududda turizmning ayniqsa ekoturizmning barcha yo‘nalishlarini rivojlantirish imkoniyati mavjud.

Jumladan “Chorvoq” erkin turistik zonasining 892 gektar yer maydonida amalga oshirilayotgan, umumiy loyiha qiymati 100 mln. AQSh dollarini tashkil

etadigan birinchi yirik “Amirsoy” tog‘ kurorti loyihasining 1-bosqichi 2019 yilning 21 dekabr kuni yakunlanib, foydalanishga topshirildi. Qishda dam oluvchilar chang‘i va snoubordlarda uchish, yozda esa plyajda hordiq chiqarish, velosipedlarda sayr qilish va dam olishning ekstremal turlari bilan shug‘ullanishlari mumkin. Loyiha tog‘-chang‘i majmualarining biznes boshqaruvi sohasida katta tajribaga ega bo‘lgan PGI Management kompaniyasi tomonidan amalga oshirildi. Tog‘-chang‘i kurorti 580 kishiga mo‘ljallangan bo‘lib, 900 gektar yerda joylashgan.<sup>1</sup>

Dam olish maskanida soatiga 2400 kishini tashiy oladigan ikkita kanat yo‘li mavjud. Uzunligi 15 km. dan ortiq bo‘lgan sakkizta chang‘i trassalari mavjud bo‘lib, eng uzun yo‘nalishning uzunligi 3350 m. Sun‘iy qorli yo‘llar tufayli chang‘i mavsumi noyabrdan aprelgacha davom etishi mumkin. Tog‘-chang‘i kurortining o‘ziga xosligi shundaki, atrof har qanday darajadagi chang‘ichilar va snoubordchilar uchun mo‘ljallangan. Endigina uchishni boshlayotganlar uchun beshta konveer tipidagi ko‘tarilish liftlari bo‘lgan zona mavjud.

Dam olish maskanida dam oluvchilar uchun Shale uslubidagi 40 ta yog‘och uylardan iborat Le Chalet by Amirsoy mehmonxonasi qurib bitkazilgan. Qulay va barcha sharoitlarga ega shalelar ikki xil kategoriyaga bo‘lingan. Deluxe va Chalet Suites shalelari dengiz sathidan 1630 metr balandlikda joylashgan bo‘lib, eng yaqin ko‘tarilish moslamasidan 2 daqiqalik uzoqlikda joylashgan.

Loyihani 1-bosqichini amalga oshirishda jami 77,5 mln. AQSh dollari, shundan 52,8 mln. AQSh dollari to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiya miqdorida mablag‘lar o‘zlashtirildi. 2020 yilda loyiha to‘liq amalga oshirilib, 200 ta yangi ish o‘rinlari tashkil etilishi ko‘zlangan. Bundan tashqari “Amirsoy” MChJ QK tomonidan yana yangi 150 mln. yevro qiymatdagi “Vest Amirsoy” tog‘ kurorti loyihasining hujjatlarini tayyorlash va 750 gektar yer maydonini tanlash bo‘yicha ishlar olib borilmoqda.<sup>2</sup>

Bo‘stonliq tumani o‘zining ekoturistik salohiyati bilan viloyatning boshqa tumanlaridan ajralib turadi. Bo‘stonliq tumanining tabiiy-ekoturistik resurslaridan ekoturizmning turli yo‘nalishlarida (tog‘ turizmi, alpinizm, speleoturizm, rafting, trekking, piyoda, ov sport-ishqibozlik) foydalanish mumkin. Ushbu tuman ekoturistik rayonlashtirish nuqtai nazaridan Chirchiq-Ohangaron okrugiga tegishli.

Ushbu rayoni ekoturistik resurslarini tahlili asosida uning Chirchiq havzasi qismida Chirchiq-Pargos, Xumson-Oqtosh, Chimyon-Beldirsoy, Burchmulla-Nanay, Oqsoqota-Parkent kabi ekoturistik kichik rayonlarini ajratish mumkin. Ular ichida ekoturizm nuqtai nazaridan eng qulayi Chirchiq vodiysining o‘rta va yuqori qismida ajratilgan Xumson-Oqtosh, Chimyon-Beldirsoy va Burchmulla-Nanay kichik rayonlaridir. Quyida ular haqida qisqacha ma‘lumot berishga harakat qilib ko‘ramiz.


<sup>1</sup> <https://uzbekistan.travel/uz/o/toshkentda-bostonliq-tumanining-turizm-zonalarini-kompleks-rivojlantirish-loyihasi-taqdim-etildi/>

<sup>2</sup> <https://uza.uz/uz/posts/toshkent-viloyatining-ekoturistik-imkoniyatlari-29-04-2020>

Xumson-Oqtosh kichik rayoni. Bunda ekoturizm uchun eng ahamiyatlisi Xumson qishlog‘idir. U Ugom tizmasi g‘arbiy chekkasining janubiy-sharqiy yonbag‘irlarida, Ugam daryosi bo‘yida joylashgan bo‘lib, maydoni 15 ming gektar, aholisi 3,3 ming kishini tashkil etadi. Aholisi asosan o‘zbeklardan tashkil topgan bu qishloq 800-1000 m absolyut balandliklarda joylashgan. Xumson-Oqtosh kichik rayonining o‘ziga xos takrorlanmas landshaftlari, iqlimi, etnik xususiyatlari, zonada atrof-muhitni ifloslantiruvchi sanoat va qishloq xo‘jaligi korxonalarining yo‘qligi va respublikamiz poytaxti Toshkent shahriga yaqin joylashganligi (60-90 km) uning hududini ekoturistik kichik rayon deb tan olishda muhim ahamiyat kasb etadi. Xumson-Oqtosh kichik rayonida may-sentabr oylari oralig‘i turistik mavsum hisoblanadi. Bu davrda Xumsonda 19000, butun zona hududida esa 220000 gacha aholi dam olishi, sayr-sayohat qilishi, davolanishi mumkin va bu davrda ular alpinizm, trekking (ko‘p kunlik sayr-sayohat), rafting (Ugam daryosida oqim bo‘ylab suzish), otda sayr qilish, baliq ovlash bilan shug‘ullanishlari mumkin. Undan tashqari yil davomida faoliyat ko‘rsatadigan “Xumson”, “Oqtosh” sanatoriylarida, “Xumson-buloq” dam olish uyida va shularga o‘xshash ko‘plab davlat va shaxsiy dam olish maskanlarida hordiq chiqarib davolanishlari mumkin.

Quydagi diogramada Xumson-Oqtosh kichik rayoni 2019-2022 yillar oralig‘ida dam olish maqsadida tashrif buyurgan sayohlar statistikasi.

3.3.1 jadval



3Manba: Toshkent viloyati hokimligi.

Burchmulla-Nanay kichik rayoni. Bu zona Chorvoq suv omborining janubi-sharqida, Piskom va Ko‘ksuv tizmalarining eng chekka g‘arbiy tarmoqlari etaklarida joylashgan, absolyut balandligi 900-1000 m atrofida bo‘lgan Burchmulla, Yakkatut, Yangiqo‘rg‘on, Yusupxona, Bog‘iston, Nanay kabi qishloqlarni va ular orasidagi hududlarni o‘z ichiga oladi. Bu zonada ekoturizm nuqtai nazaridan eng ahamiyatlisi Burchmulla qishlog‘i bo‘lib, uning maydoni


<sup>3</sup> Toshkent viloyati hokimligi ma‘lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.

15000 gektar, aholisi 4,1 ming kishi bo‘lib, etnik tarkibi asosan tojiklardan tashkil topgan. Burchmulla va uning atrofida ekoturistlarni jalb qiladigan (mikrorayonlarga) ob‘ektlarga Kulsoy darasani, Oxotnichiy cho‘qqisini, Ko‘ksuv vodiysini, Chorvoq suv omborini kiritish mumkin. Bu maskanlarda ekoturistlar Chorvoq suv omborida cho‘milishlari, ko‘p kunlik va bir kunlik sayr-sayohat uyushtirishlari, qadamjolarini ziyorat qilishlari, otda sayr uyushtirishlari, alpinizm, baliq ovlash bilan shug‘ullanishlari, shaxsiy sektorga qarashli oromgohlarda va “Burchmulla” dam olish uyida hordiq chiqarishlari mumkin. Burchmulla-Nanay kichik rayoniga kelayotgan turistlarning 80 % i uyushmagan poytaxt aholisidir. Chegara rejimi, xizmat ko‘rsatishning talab darajasida emasligi ko‘plab chet elliklarni bu zonaga jalb qilish imkonini bermaydi. Hozirgi kunda Burchmulla-Nanay rayonida mavsumda 180-250 ming atrofida aholi dam olmoqda. Kelajakda ularning sonini, yuqorida keltirilgan muammolar ijobiy hal qilinsa, 350 ming kishiga yetkazish mumkin. Bu yana Chorvoq suv ombori bo‘yida plyajlarni, tibbiy va qutqaruv xizmatini talab darajasiga keltirishni taqozo etadi.

Chimyon-Beldirsoy kichik rayoni.

Quyidagi diogramada Burchmulla-Nanay kichik rayoni 2019-2022 yillar oralig‘ida dam olish maqsadida tashrif buyurgan sayohlar statistikasi.

3.3.2 jadval



4


Manba: Statistika ma’lumotlar asosida.

Chimyon-Beldirsoy boshqa kichik rayonlardan sport-turistik infrastrukturasi yaxshi yo‘lga qo‘yilganligi bilan ajralib turadi. Shuning uchun unda turistlarning soni yoz mavsumida, haftaning ish kunlarida har kuni 3000 taga, yakshanbada esa 10000 tagacha, qishda esa dam olish kunlari 5000 tagacha yetadi. Agar bu kichik rayonda turistlar uchun barcha imkoniyatlar yaratilsa, unga tashrif buyuruvchilar soni yil davomida 700 ming tagacha yetishi mumkin.

<sup>4</sup> O‘zbekiston Respublikasi statistika qo‘mitasi ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.

Quyidagi diogrammada Chimyon-Beldirsoy kichik rayoni 2019-2022 yillar oralig`ida dam olish maqsadida tashrif buyurgan sayohlar statistikasi

3.3.3 jadval




5

Manba: Statistika ma'lumotlar asosida

Bu xududlarga kiritilayotgan investitsiyalar bu hududga keluvchi sayohlarni o'ziga tortadi albatta quyidagi jadvalda 2018-2021 yillar oralig`ida mamlakatimizga tashrif buyurgan sayohlar soni keltirilgan.

3.3.4 jadval



6

Manba: O'zbekiston respublikasi davlat statistika qo'mitasi.


Oxirgi besh yil ichida kirish turizmi bilan shug'ullanuvchilar soni 0,7 barobarga kamaydi, 2021- yilda 1881,3 ming kishini tashkil etdi, xorijga sayohat

<sup>5</sup> O'zbekiston Respublikasi statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.

<sup>6</sup> O'zbekiston Respublikasi statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.

qilgan O‘zbekiston fuqarolari soni 2194,8 ming nafarni tashkil etdi (2017- yilga nisbatan 0,4 barobar kam). 2021- yilda mamlakatimizda xizmat ko‘rsatuvchilar soni 2162,7 ming kishiga yetdi.


3.3.5 jadval(ming kishi).



7Manba: O‘zbekiston respublikasi statistika qo‘mitasi.

Yuqoridagi davlatlarning ekoturizmdan olayotgan daromadlari juda tez ko‘payayotganini ko‘rish mumkin, bizga ma‘lumki ekoturizm O‘rmon xo‘jaligi, qo‘riqlanadigan abektlar, Qo‘riqxonalar va miliy tabiat bog‘larida uyishtiriladi, bu yerlarda ekoturizmni rivojlantirish xususan o‘rmon xo‘jaligidan kelayotgan daromadlarni ham oshiradi, quydagi jadvalda o‘rmon xo‘jaligi daromadini o‘shishi ko‘rsatilgan.

3.3.6 jadval (mlrd. so‘m)



Manba: O‘zbekiston Respublikasi statistika qo‘mitasi.

Keltirilgan ma‘lumotlardan quyidagi xulosalar kelib chiqadi:

1. Respublikamizda ekoturizmni rivojlantirishning iqtisodiy isbotlari ishlab chiqilmagan. Bu vaziyatning asosiy sababi - ekoturistlarning tashrifi haqida va qaysi ekoturizm resursiga tashrif qilganligi haqida statistik axborotlar

<sup>7</sup> O‘zbekiston Respublikasi statistika qo‘mitasi ma‘lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.

<sup>8</sup> O‘zbekiston Respublikasi statistika qo‘mitasi ma‘lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.

jamlanmagan. Ikkinchidan, hozirgacha respublikamizning tabiiy hududlari bo'yicha qaysi ekologik turizm resurslaridan foydalanish ro'yxati ham tuzilmagan.

2. Ekoturizmni rivojlantirish bo'yicha "O'zbekistonda ekologik turizmni rivojlantirish Kontseptsiyasi" qabul qilingan. Ushbu "Kontseptsiya" ning 1.4. bandida - ekoturizmning ijtimoiy-iqtisodiy masalalari echimini topishi lozim bo'lgan dolzarb masalalar sifatida qayd qilingan.

Ular quyidagilar:

Ekoturizm ob'ektlarida aholini ish bilan ta'minlash, ijtimoiy muhofaza qilish muammolarini hal qilish;

Ekoturizm qadamjoylarida kichik va o'rta biznesni rivojlantirish orqali qo'shimcha ish o'rinlarini yaratish, turistik infratuzilmalarni hosil qilish;

Ekoturizmning jahon talablariga javob beraoladigan moddiy - texnik, axborot - tahliliy bazasini yaratish xizmat ko'rsatish va servis sohasini rivojlantirish;

Ekoturizm maskanlarini elektr energiyasi va issiq suv bilan ta'minlash masqadida ekologik toza, qayta tiklanuvchi muqobil energiya qurilmalari yordamida foydalanishni keng yo'lga qo'yish.

Ekoturizmning faqat foyda keltiradigan soha deb hisoblash mumkinemas. Bu faoliyat turi agar maqsadga muvofiq doirada amalga oshirilmasa, uning qoidalari va talabalariga rioya qilinmasa tabiatga jiddiy salbiy ta'sir qilishi va noxush oqibatlarga olib kelishi tabiiy.

**Xulosa va takliflar.** O'zbekiston Respublikasida o'rmon fondini muhofaza qilish, ko'paytirish, undan oqilona foydalanish, uning moddiy-texnika bazasini modernizatsiya qilish, sohaga bozor mexanizmlarini hamda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish, kadrlar salohiyatini oshirish hisobiga ilm-fan yutuqlaridan samarali foydalanish, shuningdek, 2030-yilgacha bo'lgan davrda o'rmon xo'jaligini isloh qilish va ekoturizmni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash maqsadida.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 23-avgustdagi "Respublikada o'rmonlardan foydalanish samaradorligini oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4424-son qaroriga asosan.

2020-yilning yanvar — sentyabr oylarida o'rmon fondining o'rmon bilan qoplanmagan 29 ming gektardan ortiq yerlari 1 561 ta jismoniy va yuridik shaxslarga 275 mlrd so'm va 7 mln dollardan ortiq investitsiya kiritish, 4300 ta yangi ish o'rinlari yaratish sharti bilan 49 yilgacha muddatga ijaraga berish yo'lga qoyilgan shu yerlarda ekoturizmni rivojlantirish va iqtisodiy samaradorligi oshirish ekoturizmni rivojlantirish orqali aholini daromadini oshirish va O'zbekiston Respublikasiga ekoturizm orqali chet el investitsiyalari olib kirish va infratuzilmalarni yaxshilash, mahaliy va xorijiy sayohlarni jalb qilish hamda qulayliklar yaratish ilmiy tadqiqot ishida shu masalalarga yechim berishga harakat qildim.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyayevning 2020 yil 24 yanvardagi Parlamentga Murojaatnomasi. lex.uz
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyayevning 2018 yil 22 dekabrda Parlamentga Murojaatnomasi. lex.uz
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyayevning 2017 yil 21 dekabrda Parlamentga Murojaatnomasi. lex.uz
4. Ilm, ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili Davlat Dasturi. lex.uz
5. O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Xarakteristikalar strategiyasi. 2017 yil 7 dekabr
6. Boltaboev M.R., Tuxliev I.S., Safarov B.Sh., Abduxamidov S.A. Turizm: nazariya va amaliyot. -T.: "Barkamol fayz mediya" nashriyoti 2018 y. 70-Porter, M. E. Clusters and the new economics of competition. Harvard Business Review, 76(6), 77-90, 1998.
7. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. -T.: "O'zbekiston", 2003.
8. "Turizm to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining Qonuni. O'zbekistonning yangi qonunlari. -T.: Adolat, 2000, 131-140 b.

#### Internet saytlari

9. <https://givoyles.ru>
10. <http://lex.uz>
11. [www.wikipedia.org](http://www.wikipedia.org)
12. <http://scholar.google.com>
13. [www.qiziltepa.uz](http://www.qiziltepa.uz)
14. [www.scholar.google.com](http://www.scholar.google.com)
15. [www.booksee.org](http://www.booksee.org)
16. [www.scopus.com](http://www.scopus.com)
17. [www.elibrary.ru](http://www.elibrary.ru)